7.	<b>Darslarda kreativ fikrlashni shakllantirish va uning samarasi.</b> Ta'lilda kreativ fikrlashning asosiy vazifasi talabada jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan sohalarga moslashishga ko'maklashadi.

Yuqorida keltirilgan uslublardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida talabalarning individual intellektning har xil tiplariga qarab yondashishni talab etadigan topshiriqlar beradigan holda tashkil etish, mashg'ulot jarayonida talabalarning axborotni qabul qilish toifalarini inobatga olgan holda ko'rgazmali qurollar va didaktik vositalarning har xil ko'rinishlaridan foydalanish orqali kasbiy-metodik tayyorgarligini muvaffaqiyatli shakllantirish va rivojlantirish mumkin.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga kasbiy-metodik tayyorgarlikda yuqori, o'rta va kuyi murakkablikdagi vazifalar berish nazarda tutiladi va talabalar bilan individual ishslashning quyidagi turlari tavsiya etiladi:

1. Mustaqil ish. Ta'limga bu shaklida talaba o'quv materialini ham, uni o'rganish yo'llarini ham o'zi tanlaydi. O'qituvchi esa o'quv materialini tavsiya etadi va talabalarga tegishli maslaxatlarni beradi.

2. O'quv materialini o'zini-o'zi boshqarish assosida o'rganish. Bunda o'quv materialini o'rganish va uning maqsadi o'qituvchi tomonidan belgilanadi. O'quv materialini o'rganish uslubi talaba tomonidan tanlanadi.

3. O'rganish uchun mo'ljallangan ta'lim mazmuni va uni o'rganish vaqtini talabaning o'zi tanlaydi. Uni o'zlashtirish yo'llari o'qituvchi tomonidan belgilanadi.

4. O'quv materiali talaba tomonidan aniqlanadi. Bunda talaba o'quv materiali, uni o'zlashtirish tartibi, ketma-ketligi, o'rganish tezligi, o'z faoliyati natijalarini o'zi baholashi, maqsadni tanlashi nazarda tutiladi [10; 24-b.].

Buni biz 2-kursda "**Adabiy asar muqovasiga eskiz ishslash**" mavzusida kompozitsiya ishslash orqali individual yondashishni amalga oshirishimiz mumkin. Jihozlanishi: A3 frmat, oddiy qora qalam va akvarel, guash bo'yoqlari, mo'yqalam, o'chirg'ich, adabiy asar kompozitsiyalari.

Darsning mazmuni: Talabalarga adabiyot olami, adabiy asarlar haqida ma'lumot berish hamda uni idrok etishda adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalar ko'rinishi, undagi ranglar haqida suhbat o'tkaziladi, "**Adabiy asar muqovasiga eskiz ishslash**" mavzusida kompozitsiya ishslashda asar mazmuni, uning g'oyasi, asarning kulminatsion nuqtalari, voqealoyini, davrini tasavvur etishi haqida ma'lumot beriladi. Auditoriya doskasida o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan jahon va milliy adabiy asarlarga oid na'munalarini namoyish etib, talabalarning kitobat olamiga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqib, quyidagi tarzdagi variantlarni tavsiya etadi (1-rasm):

1. Birinchi guruh talabalari uchun: "Z.M.Boburning "Boburnoma" asaridan sizga yoqadigan syujetni tanlang va rasm daftarga rangli qalamlar va pastelda tasvirlang"
2. Ikkinci guruh talabalari uchun: " Z.M.Boburning "Boburnoma" asaridagi Xindiston manzaralarini akvarel yordamida tasvirlang"
3. Uchinchi guruh talabalari uchun: " Z.M.Boburning "Boburnoma" asarida e'tirof etilgan voqealarni tasvirlang: o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lган shahar, qishloqlar va personajlarini guash yoki akvarelda tasvirlang"



1-gurux



2-gurux



3-gurux

#### **1-rasm. "Boburnoma" asari asosida kompozitsiya ishslash**

Talabalar bilan ishslashda o'qituvchi birinchi bosqich davriga xos bo'lган adaptatsiya jarayonini qurishda talabani o'qituvchilik kasbiga qiziqtirishida "Samimiy muloqot" metodaridan foydalanish lozim bo'ladi. Har bir talabaning individual xususiyatlarini o'rganishda, E.A.Arkinaning fikricha "Samimiy muloqot" bo'lishi juda muhimdir. **"Samimiy muloqotda"** talaba o'qituvchi unga juda qiziqqan, uning tashvishlariga jonli javob topadigan, odamni ko'radian munosabatlar o'rnatilishini tushunish kerak [10; 52-b.]

Shu bilan birga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligida **pedagogik amaliyat** alohida o'rin tutadi. Pedagogik amaliyat - bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyat - bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishslash ko'nikmasini shakllantiradi, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iboratdir.

**2. Didaktik o'yin texnologiyalari.** Pedagogik amaliyat davrida o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ular yaxshi ko'radian o'yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida o'yinlar quyidagi funktsiyalarni bajaradi: tashxislash uchun: o'zini tutish me'yordan chetlashganligini aniqlash; kommunikativ: muloqot dialektikasini o'zlashtirish uchun; o'yinda o'zligini namoyon qilish uchun; o'yin terapiyasi: hayot faoliyatining turli jahbalarida vujudga keladigan turli qiyinchiliklarni engish uchun; korrektsiya kiritish: shaxsiy ko'rsatkichlariga ijobjiy o'zgartirishlar kiritish uchun va h.k.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga bo'lган motivatsiya va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Talaba didaktik o'yinlarda zo'r mammuniyat bilan ishtirok etadilar. Kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda o'yin texnologiyalarining bir nechta turlarini samarali qo'llash mumkin. Masalan, a) Imitatsion-jarayonli o'yinlar – mashqlantruvchi o'yinlar qatoriga kirib, bunda talabalar o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikmalarini aniq, maqsadga muvofiq tarzda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. b) Syujetli o'yinlar – talabalarga hayotiy haqiqatlarni aks ettiruvchi, hech qanaqa tayyorgarliksiz,

o'tilgan mavzu doirasida topshirilgan o'yinlar. v) Qoidalarga asoslangan o'yinlar - oldindan tayyorlangan stsenariy asosida amalga oshiriladi. g) Yangi g'oyalarning tug'ilishini ta'minlovchi didaktik o'yinlar esa talabalarning ichki sezgilari va tasavvurini ishga solish orqali tashkil etiladi.

**"Axromatik va xromatik ranglarni top"** didaktik o'yini (2-3-rasm). O'yin maqsadi: ranglar bo'yicha o'yin o'quvchilarning ranglar haqida yanada chuqurroq bilim olishlarida, ularning fikrlash qobiliyatlarini, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o'stirishga, topqirlilik, ziyrakliklarini rivojlantirishga yordam beradi [10; 245-b.].

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o'quvchilarga o'yin orqali rangshunoslik asoslari, ranglar munosobatini aniqlash, estetik didni tarbiyalash;



2-rasm. Axromatik va xromatik ranglarni toping.



3-rasm. Axromatik va xromatik ranglarni aniqlash.

**O'yin qoidasi:** bu o'yinni kichik guruhlar bilan ishlashda darsni mustahkamlash qismida olib borilsa, bo'ladi. O'quvchilarga o'yinni boshlashdan oldin asosiy va qo'shimcha ranglarni tabiatda uchrashi, ulardan hosila ranglar kelib chiqishi haqida suhbatlashib, tasviriy san'at darslarida bo'yoqlardan qanday foydalanish haqida tushuncha beriladi. Shu sababli o'yin qoidasi bo'yicha talabalar har bir rangni tabiatda qaerda uchrashini aytib beradilar. Doskada ranglar jadvali bilan birga misollar yozilgan kartotekalar bo'ladi. Har bir guruhdan talabalar chiqib, misollar javobini echishadi. Qaysi guruh talabalarini misollarni xatosiz echsa bu guruhga ball beriladi.

Misollarni o'qituvchi mavzularga moslashtirib olishi mumkin. Har bir guruh ishi ranglarni doskada tasvirlab berishi mumkin. Ranglar jadvalida asosiy va qo'shimcha ranglar tayyorlab qo'yilishi lozim. Xatoga yo'l qo'yilsa, ranglarning nomlari noto'g'ri aytilsa o'qituvchi tomonidan jarimalar aytildi. Ranglarni to'g'ri topgan guruh talabalarini g'olib hisoblanadi. Shu o'yin oxirida talabalarga kreativ va tanqidiy fikrlash bo'yicha savollar beriladi. Ranglarni nomlarini to'g'ri aytish uchun uchun nimalar zarur? Ranglarni asosiy va hosila ranglar deyilishiga sabab nima? Nima uchun? kabi savollarga talabalar ijodiy yondashib tanqidiy fikrlashadi (4-5-rasm).

Kreativ fikrlashning yana bir muhim omillaridan biri hamkorlik. Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko'ra, guruh a'zolari maqsadli, opportunistik vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo'yadi va uning ro'yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a'zolari o'zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda etakchilikni oladi.



4-rasm. Asosiy ranglar didaktik o'yini.


5-rasm. Hosila ranglar didaktik o'yini.

**3. Muammoli ta'lif texnologiyalari.** Talabalar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan holda tashkil etish usulidir. Muammoli ta'lif ta'lif oluvchilarning bahslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir.

Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli ta'lifning quyidagi yutuqlari mavjud: bilimlarni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta'lif oluvchilarning mustaqil dunèqarashini shakllantirishga èrdam beradi, talabaning shaxsiy motivatsiya-lari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantiradi, talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, talabaning dialektik tafakkurining shakllanishi va rivoj-lanishiga èrdam beradi, ular tomonidan o'rganilaётган hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi.

Tasviriy san'at ta'lif yo'nalishida muammoli mashg'ulotlarni quyidagilar bo'yicha tashkil etish mumkin:

1. Ilmiy muammo echimi, ya'ni, nazariy tadqiqotda yangi qoida, qonun, isbotlash talab qilinadigan o'quv muammolari echiladi. 2. Amaliy muammoning echimi, ya'ni ma'lum bilimni yangi vaziyatda qo'llash, konstruktsiya yaratish, ixtiro qilish kabi amaliy o'quv muammolari echiladi. [173; 141-b.]

**4. Ta'lifda loyihalash texnologiyalari.** (lot. "projectus" – "ilgari surilagan") aniq maqsad va reja asosida natijalarni kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakatdir. Zamonaviy ta'lif jarayonida ham loyihalar bilan ishlashga asoslangan ta'lif loyihasi keng qo'llanilmoqda. Loyihalash - aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, ma'lumotlar orqali kutiladigan natijani taxmin qilish, rejalshtirish, bashoratlash orqali oldindan faoliyat modelini tuzish, ta'lif jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatdir.

Tasviriy san'attan ta'lif jarayonini loyihalashda alohida olingan dars va darsdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasini ishlab chiqish tushuniladi. Tasviriy san'at fani darslarini loyihalash muayyan qonuniyatlar asosida kechadi (2-jadvalga qarang):

## 2-jadval.

	Darsning loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi.
	Tasviriy san'at darslarini loyihalash strategiyalari bo'lajak o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi.
	Darslarning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlari va qobiliyatiga bog'liq holda tanlanadi.
	Darsning loyihalash sifati teskari aloqada, ya'ni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Tasviriy san'at darslaririni loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqariladi. Darsga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan mutonasib, uyg'unlashishiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi [10; 207-b.]

Topshiriqlarni bajarishda talabalarning mustaqil fikrlashi katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlash jarayonida topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarni mustaqil ravishda hal etishlari, qo'yilgan vazifalariga javob topa olishlari bilan belgilanadi. Ular talabalar faoliyatida turlicha shaklda ifodalanadi. Ayrim talabalar vazifalarni bajarishda turli yo'larni izlaydilar, muammoning echimini asoslashga harakat qiladilar. Boshqalar qiyinchilik sezishlari bilanoq darrov o'qituvchiga, o'rtoqlariga murojat qiladilar.

Ayniqsa birinchi kurs talabalarida adaptatsiya davrida bunday xolatlarni kuzatishimiz mumkin. Bu davrda o'qishga qabul qilinganda talabalarga yangi sharoitga adaptatsiya jarayonini o'tishga yordam berish zarur. Agar talaba o'zing kuchi va qobiliyatiga ishonmasa, o'qituvchi uni qo'llab-quvvatlashi kerak va "**Muvaffaqiyat qozonish**" holatini yaratish zarur. [80]

"Muvaffaqiyat qozonish" holatini yaratish usullari V.A.Suxomlinskiyning "Quvonch maktabi" va A.S. Makarenkoning [7; 56-b.] pedagogik faoliyatida "Ertangi quvonch" g'oyalari asosida ishlab chiqqilgan.

"Muvaffaqiyat qozonish" holati deganda jismoniy yoki ma'naviy stress natijasida qoniqishning sub'ektiv psixologik vaziyati tushuniladi. Agar talabaning o'zi bu natijani yutuq deb bilsa, muvaffaqiyatlari vaziyatga erishish mumkin. Talabada bunday holat o'zining tortinchoqligi, qobiliyatsizligi, layoqatsizligi, psixologik mag'lubiyati va shunga o'xshash narsalarni engib chiqqandan keyin sodir bo'ladi.

"Muvaffaqiyat qozonish" holatida talaba: o'rganish motivatsiyasi oshiriladi va kognitiv qiziqishlari rivojlantiriladi, talabaga o'quv faoliyatidan qoniqish hissi paydo bo'lishiga imkon beradi; yuqori marralarga intilishga undaydi; qo'rquv, ishonchsizlik, o'ziga baho bera olmaslik kabi shaxsiy xususiyatlarini bartaraf etadi; tashabbuskorlik, ijodkorlik, faollikni rivojlantiradi; auditoriyayada quay psixologik muhitni yaratiladi.

"Muvaffaqiyat qozonish" holatini yaratish sun'iy ko'rinishga ega, chunki o'qituvchi ma'lum vaqt davomida (ma'lum bir vaziyatda) talabaning ishidagi kamchiliklarga chuqur e'tibor

bermasdan, yutuq tomonlarini rag'batlantirishga diqqatini qaratadi. Bu metodda talabalarning turli o'zlashtirish darajalari bilan ishslash usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilganda, "Muvaffaqiyat qozonish" holati ta'lim jarayoniga talabalar faolligi, o'ziga nisbatan ishonchning paydo bo'lishi, talabalarda yutuq quvonchini his qilishi, o'z qobiliyatlarini anglashi, o'ziga ishonish imkoniyatini berishi, o'zlarini shaxs sifatida shakllantirishni namoyon etishiga hissa qo'shadigan omillardan biriga aylandi.

Tasvirlash jarayonida umumiyl e'tiborni badiiy did, tasviriy san'atning hayotimizdag'i o'rni, rassomlar o'z asarlarida oldiga qo'yadigan va hal qiladigan vazifalarga, shuningdek san'atning jamiyatdagi rolini ochib berishga qaratilganligini **tushuntirib berishi** kerak bo'ladi [7; 79-b.].

Tasviriy san'at mutaxassislik darslarida naturaga qarab rangtasvir ishslash alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bu asosan bo'yoqlar bilan ishslash ko'nikmalarining etishmasligi bilan bog'liqdir. Talaba rangni ko'radi, lekin uni aks ettira olmaydi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi talabalarga yordamga kelishi kerak, akvarel, guash va moybo'yoq texnikasini o'zlashtirish uchun bir qator mashqlarni taklif qilishi, turli xil ranglarni aralashtirish va yangi rang tuslarini olishning samarali usullarini "**Master-klass**" lar yoki pedagogik rasm orqali namoyish qilishi kerak. Ranglarni ochartirish va qoraytirish bo'yicha mashqlar, axromatik va xromatik ranglarni topish, ikkita berilgan rang bilan ularning o'rta rangini topish bo'yicha mashqlar juda foydali bo'lib, talabalarning bo'yoqlar bilan ishslashda qo'rquv hissini engishga va rangshunoslikning boy imkoniyatlarini o'zlashtirishga yordam beradi [7; 20-24-b.].

**5. Interfaol ta'lim texnologiyalari.** Noan'anaviy dars mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnalogiyalaridan foydalanish, innovatsion uslublarni qo'llash, guruhash, muommoli topshiriqlardan samarali foydalanish orqali talabalarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishdagi faolliklarini bir necha marta oshirishga tushuniladi. **Interfaol** (interaktiv) inglizcha "inter"-o'zaro o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorlikda ta'lim mazmunini o'zlashtirishda birgalikda faol harakatlanishiga aytildi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda **interfaol usulda** rangtasvir dars o'tish kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantiradi. Interfaol usullar ta'lim oluvchini faollashtiradi, guruhdagi barcha talabalar ishtirokini ta'minlaydi. Ayniqsa, rangtasvir fanini o'qitishda ulardan foydalanish dars sifatini oshiradi. Masalan, 1-kursda Rangtasvir fanidan: "**Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari**" mavzusini ko'rib chiqaylik.

O'quv vaqt: 2 soat

Talabalar soni: 25 ta

O'quv mashg'ulot shakli: ma'ruza

Ma'ruza rejasi: 1. Rangtasvir haqida umumiyl tushuncha. 2.Ranglarxususiyati va turlari. 3. Rangtasvir maqsad va vazifalari. 4.Naturaasosida rangtasvir ishslash masalalari. 5.

Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 6. "FSMU" uslubi. 7. Adabiyotlar bilan ishslash.

Asosiy tushuncha va atamalar: natura, blik, yorqinlik, rang-tus, xromatik rang, axromatik rang, natyurmort, kompozitsiya tekisligi, akvarel, guash, moybo'yoq, siluet, sovuq ranglar, iliq ranglar, qarama-qarshi ranglar, rassom-pedagog.

O'quv mashg'ulotining maqsadlari: Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Rangtasvir san'at haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning

ahamiyatini o'rganish. Grizayl texnikasi tushunchasi va mohiyatini ochib berish. Axromatik va xromatik ranglarni bilan tanishtirish. Natyurmortda buyumlar shakli. hajmi, yorug'lilik xususiyatlarini bir hil rangda to'g'ri aks ettirish (6-rasm).

FSMU orqali talabalarda taqqoslash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'qitishning texnikasi va uslubi: "O'y lab ko'ring", fikr almashing, blits-so'rov, BBB-bilmayman, bilaman, bilib oldim, kichik guruhlarda ishslash, esse.

O'qitish vositasi: Reproduktsiyalar, rang jadvallari, texnologik harita, slaydlar, doska, mavzuga oid videofilm va audiokitob.

O'qitish sharoiti: Auditoriya, studiya, texnik vositalar, guruhlarda ishslash uchun moslamalar.

Mashg'ulot natijasida aniqlanadi:


Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Unga asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishslash xarakterlidir.

Asosiy ranglar - \_\_\_\_ nafar talaba

Hosila ranglar - \_\_\_\_ nafar talaba

Xromatik ranglar - \_\_\_\_ nafar talaba

Axromatik ranglar - \_\_\_\_ nafar talaba



**6-rasm. Realistik rangtasvirni ishslash bosqichlari.**

Dars natijasida talabalar "Rangtasvir" haqidagi bilimlarini yanada boyitib, o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydilar, ranglar xususiyati, turlari, asosiy va qo'shimcha ranglar anglaydilar. Realistik rangtasvir, tasvida narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilinadigan badiiy echim. Realistik rangtasvirning sifatlari (shu'la, yorug'lilik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug'lilik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkinligini anglash. Tusli farqlar tushunchasi. Rang jihatidan naturada zinch va toqroq, boshqalari esa ochroq ko'rinishi. va h.k. Dars oxirida FSMU texnologiyasi bo'yicha savol-javob o'tkaziladi.

### **FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga,

erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval


<b>Savol</b>	"Rangtasvir" faning predmeti va mazmuni to'g'risida nimalarni bilasiz?
<b>(F) Fikringizni bayon eting</b>	
<b>(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</b>	
<b>(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring</b>	
<b>(U) Fikringizni umumlashtiring</b>	

Demak, interfaol usullar rangtasvir fanini mazmunini boyitish va ta'lrim oluvchining imkoniyatlarini aniqlashda o'qituvchiga qo'l keladi.

Quyida keltirilgan interfaol ta'lim jarayonlari natijasining ijobiy va salbiy bo'lishiga javob beradi. Talaba tafakkuriring rivojlanganligi uning nutqida ham nomayon bo'ladi. Nutq yo'nalishda P.Ya.Galperin, N. Mahmudov va N.I.Jinkinlar [9; 40-49-b.] shug'ullanishgan. Talaba nutqi tafakkur qilish jarayonida shakllanadi, tafakkur esa uning atrofdagi odamlar bilan nutq orqali muloqot qilganda rivojlanadi. Nutq tafakkur shakli.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida **nutqni shakllantirish** usul va metodlari sirasiga psixolingvistik test va treninglar, mustaqil ishlar, psixologik treninglar va ijodiy ishlarni tahlil qilish ham kiradi. Shunday psixolingvistik treninglarni 2-kursda "Tasviriy san'at tarixi" fanida qo'llash mumkin. "**Ijodiy tanqid treningi**:

**1-usul.** Talaba kompozitsiya darsida o'zi yaratgan yoki tanlab olgan rangtasvir asarini auditoriyada guruhga namoyish qilib unga ta'rif beradi. Rangtasvir asarini talabalar sinchiklab ko'zdan kechirib tahlil qiladilar. Tahlil davomida talaba ko'rsatilgan rangtasvir asar mazmunini ochib beradi, asarning tasvirlash uslubi va bosqichma-bosqich bajarilish texnikasini sharhlab, rangtasvir asarida ranglarining berilishi, ulardan foydalanilganligi yoritib beradi (7-8-rasm).



**7-rasm. Alfred Sisley.****“Luvusenega yo’l”. 1873 y.**


Daraht va yo’lga nisbattan asoslangan kartinaning perspektiv konstruktsiyalarining kompozitsion sxemasi

**8-rasm. O’rol Tansiqboyev “Mening kuyim”. 1972 y.**

Rassomlar ko’plab kompozitsion usullardan foydalanadilar, ularning ishlaridan qoyil qolamiz. Ranglar echimi - rassomlarning asarlarini tahlil qilishda muhim, ammo yagona komponent emasdir.

**2-usul.** Talaba o’zi keltirgan ijobiy tahlilning to’g’riligini isbotlashga va himoya qilishga harakat qiladi. Foydalanilgan chizgilarning me’yori, rang munosabatlari haqida qo’shimcha ma’lumot beradi. Asarni tanlash va uni o’rinli tahlil qilishdagi mahoratini, yutuqlarini ajratib ko’rsatadi. Qolgan ishtirokchilar asarni chuqurroq tahlil qiladilar va fikrlarini bayon etadilar (9-rasm).

**3-usul.** Talaba tinglovchilarga namoyish qilingan rangtasvir asarida, muallifining tasvirlashdagi xatolari (agarda talabalar tomonidan chizilgan asar bo’lsa) ko’rsatiladi. Asar haqidagi fikrni davom ettirib rivojlantiradi, unga takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi yuzasidan asosli dalillar keltiradi, tanlangan rangtasvir asaridan boshqa turdosh asarlar orqali isbotlashga harakat qiladi (10-rasm).

**9-rasm. Ilya Repin. “Volgadagi burlaklar”. 1872 y.**

Diognal kompozitsiya kartinaning dinamikasini va harakat hissini beradi

**10-rasm. P. Sezann. Savatdagi olmalar natyurmorti. 1894 y.**

Natyurmortda ketma-ket ovallar bor: birinchisi, olmalar qo’yilgan oq sochiq, ikkinchisi, kartinaning yuqori qismi savatdagidagi olmalar va uchinchisi likobdagidagi mevalar

**4-usul.** Bir guruh talabalar doskaga chiqariladi va taqdim qilingan asarni tahlil qiladilar. Asarni eng yaxshi tahlil qilgan talaba g’olib hisoblanadi. Agar tahlil qilingan asar, avvalgi asar tahlilidan pastroq darajada bo’lsa, me’yoriy talablar buzilgan bo’lsa, g’oliblik chambaragi asar muallifining o’zida qoladi [12; 422-b.].

**Xulosa va takliflar.** Bo’lajak tasviriylar san’at o’qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda doimiy izlanish va ijodga undaydi. Talabalarining kasbiy-metodik tayyorgarligini o’quv jarayonida ta’lim texnologiyalari va innovatsion metodlar orqali tayyorlashda qo’llanilayotgan malaka talablari, o’quv reja, fan dasturlari va o’quv adabiyotlari, xonalarining moddiy-texnik bazasi tizimli tahlil qilish, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo’yicha

kasbiy-metodik tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tayyorgarlik holatini muntazam tahlil qilinib borish, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'rghanishda kasbga oid bilimlar va vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni tahliliy o'rghanib borish kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishning ta'limning interfaol, integrativ texnologiyalarini metod va usullarini ta'lim amaliyotiga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmay balki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining o'z kasbida kreativ yondashuv orqali pedagogik faoliyatni tashkil etishga dav'at etadi.

#### **Адабиётлар/Литература/Reference:**

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education// <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373602.locale=en>
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini. Lex.uz. 2020.
4. Pedagogika: entsiklopediya. 2-jild // Tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. -376 b.
5. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - Toshkent: Fan. 2004. - 176 b.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. -308 с.
7. Xayrov R.Z. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv. Monografiya. - T.: Ilm Ziyo Zakovat. 2021. -102 bet.
8. Xayrov R.Z. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari va modeli // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers // Volume-11// Issue-5// 2023 Published: // 22-05-2023. p. 40-49
9. Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода // Вестник ГулГУ ОАК. -Гулистан. -№3 (95) -2022. - С. 20-24.
10. Xayrov R.Z. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. Darslik. -T.: Metodist nashriyoti. 2023. -276 bet.
11. Sharipov Sh.S Davlatov K.N., Nasriddinova G.S., Kasbga yo'naltirishning ilmiy -pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: TDPU. 2007. -147 b.
12. Sharipjanov M.M. Bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarining nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirish usullari // Barqaror rivojlanishda uzlusiz ta'lim: muammo va echimlar: xalqaro ilm. anj. ilm. ish. to'p. 21-24 may 2019. - Chirchiq. - 422-423 b.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/2 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).